IJTIMOIY TARMOQLARDA IMLO VA USLUB ME'YORLARINING BUZULISHI

Mardonova Marg'uba Boboyorovna
Osiyo texnologiyalar Universiteti 1-bosqich magistranti.
margubamardonova82@gmail.com

imrconf.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda imlo va uslub me'yorlarini buzilishi masalasi tahlil qilinadi. Internet muloqoti jarayonida uchraydigan imloviy xatolar, qisqartmalar, aralash tilli birliklar va uslubiy kamchiliklar yoritilgan. Shuningdek, ushbu holatlarning sabablari, salbiy ta'siri hamda ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема нарушенея орфографические ошибки, сокращения, смешение языков и стилистические недостатки, встречающиеся в интернет - коммуникации. Также анализируются причины этих явлений их отресательное влияние и пути их придотвращения.*

Abstract. *This article analyzes the problem of violations of spelling and stylistic norms in social networks. It highlights spelling mistakes abbreviations, mixed-language expressions, and stylistic shortcomings found in online communication. The article also discusses the causes of these issues their negative impact and possible ways to prevent them.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy tarmoqlar, qisqartmalar, uslub me'yorlari, telegram, instagram, tiktok.*

Kirish.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Telegram, Instagram, Facebook, Tiktok v boshqa platformalar orqali odamlar tezkor muloqot qilmoqda, fikr almashmoqda va axborot tarqatmoqda.

imrconf.com

Biroq ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalarning ko'payishi bilan imlo va uslub me'yorlarining buzilishi ham keng tarqalmoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida qisqartmalar, aralash tilli birliklar va noto'g'ri yozuv shakllari ko'payib bormoqda. Imlo me'yori- so'zlarni adabiy til qoidalariga muvofiq to'g'ri yozish tizimidir. U tilning yagona yozuv shaklini ta'minlaydi. Til me'yorlariga rioya qilmaslik, imlo va grammatik xatolar, uslubiy noaniqliklar bu maydonning asosiy xususiyatlariga aylangan. Bunday holatlar nafaqat undividual yozuvchilarning savodxonligi, balki umuman til ma'daniyati darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu hodisalar tilni o'rganish va o'qitishda ham muammolar tug'dirmiqda. **Tadqiqot va metodik tavsiyalar.** So'nggi yillarda O'zbekistonda ham raqamli savodxonlik va ijtimoiy tarmoqlardagi til me'yorlarini o'rganishga e'tibor ortmoqda. Tilshunos olimlar D. Jo'raqulova, G. Karimova, M. Tojiyev va A. Madrahimovlar ijtimoiy tarmoqlardagi nutq madaniyati, jumladan, imloviy va grammatik me'yorlarga e'tibor qaratgan. Xususan, D. Jo'raqulova o'z tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til me'yorlarining buzilishi, asosan, yoshlar orasida keng tarqalayotkanini ta'kidlagan. Shuningdek, G. Karimovaning " Zamonaviy o'zbek tili" asarida raqamli muloqotga oid til birliklarining o'rganilishi tahlil qilingan.

Munozara. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda tezkorlik va qisqa ifoda usuli til me'yorlariga putur yetkazmoqda. Ko'pchilik foydalanuvchilar nutqda fonetik qisqartmalar emotikonlar ingliz tilidagi qisqartmalar, til aralashmalarini qo'llamoqda. Foydalanuvchilar tez yozish maqsadida ayrim tovush yoki harflarni yozmaydi. Masalan, nima- nma, bomdi- bo'lmaydi, kegan-kelgan. Bu holat so'zlarning adabiy shakliga zarar yetkazadi. Bundan tashqari, lotin va krill yozuvining aralashishi ham kuzatilmoqda. Bugun darsga бормайман. Bu esa yozuv madaniyatining pasayishiga olib keladi. Chet til elementlarining ortiqcha qo'llanilishi holatlari ham ko'p uchramoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda inglizcha so'zlarni aralashtirib gapirish odati kuchaymoqda. Masalan, Post joyladim, comment yozdim, story

joyladim. Holbuki, ularning o'zbekcha muqobillari mavjud. Post-yozuv, comment-izoh, story-hikoya yoki vaqtinchalik post. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan bekorchi-parazit so'zlarham adabiy til me'yorlarining buzilishiga olib keladi. Nutqda bu so'zlar o'rinli-o'rinsiz ko'p takrorlanadi. Masalan, xo'sh, xo'p, demak, ya'ni, masalan, olaylik, tak, haligi, anavi. Konselyarizmlar- badiiyadabiyotda obrazli individuallashtirishda uslub vositalari sifatida ish qog'ozlari va hujjatlar uslubiga xos so'z va iboralar. Albatta, ma'lum bir shaklda saqlanadigan so'z birikmalari gaplar o'z o'rnida juda zarur. Ammo bu "qat'iy shakllar" shablonlar so'zlashuv nutqiga, badiiy adabiyotga, publitsistikaga o'tsa, madaniy nutqni buzishi mumkin. O'rinsiz konselyarizmlar, kengashlar, majlislar, gazeta, radio, televideniyeda so'zlangan nutqlarda ko'plab uchraydi. Uslub me'yorlari- nutqning vaziyatga mos mazmunli va madaniy shaklda ifodalanilishidir. Ijtimoiy tarmoqlarda esa: qo'pol so'zlar, jargonlar, shevaga oid birliklar, hissiz va tartibsiz gaplar ko'p ishlatiladi. Masalan, gap yo'q, zor, mandanam o'tibdi, prikol ekan. Bunday holatlar nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi imlo va uslubiy me'yorlarning buzilishining sabablari: Foydalanuvchilar tez yozishga harakat qilgani uchun qoidalarga e'tibor kamayadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy uslub kundalik nutqqa ham o'tadi. Badiiy adabiyot kam o'qilishi sababli adabiy til me'yorlari sustlashmoqda. Yoshlar orasida ommalashgan qisqartmalar va jargonlar tez tarqalmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi adabiy nutq va uslub buzilishiga oid muammolarni bartaraf etish uchun adabiy til me'yorlarini targ'ib qilish kerak. Maktablarda nutq madaniyatida ko'proq e'tibor berish kerak, kitob mutolaasini oshirish kerak. Internetda savodli yozishni ommalashtirish kerak. O'zbekcha muqobillardan foydalanishni kuchaytirish kerak.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlarda imlo va uslub me'yorlarining buzilishi zamonaviy kommunikatsiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Tezkor muloqot va internet madaniyati natijasida noto'g'ri yozuv shakllari keng

imrconf.com

tarqalmoqda. Biroq adabiy til me'yorlariga amal qilish, savodli yozish va nutq madaniyatini rivojlantirish orqali bu muammolarning oldini olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva M. O'zbek tilida nutq etiketi.Toshkent: Ma'naviyat, 2011.
2. Ahmadjonova D. Raqamli savodxonlik va til muammolari. Filologiya ilmi. 2022.
3. Nazarova N. Internet tili va adabiy til me'yorlari. Yosh tilshunos maqolalari. 2023.
4. Zohidov H. Ijtimoiy til normalari. Til va adabiyot jurnali.2020.
5. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro- 2002
6. Crystal D. Language and the Internet Cambridge University Priss- 2006
7. Mardonova M. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tilining o'ziga xos xususiyatlari. Internatsional research journal 100. (february 26, 2026.)

imrconf.com